





QASHQADARYO
VILOYATINING
CHAKANA SAVDO
TOVAR
AYLANMASI



ViLOYAT bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 859 744,0 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 4,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalar tovar aylanmasi 36 903,7 mln. so'mni (o'sish sur'ati 171,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 746 620,4 mln. so'mni (o'sish sur'ati 103,5 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 76 219,9 mln. so'mni (2019-yilning shu davriga nisbatan 1,5 % ga kamaygan) tashkil etdi.

HUDUDLAR
KESIMIDA
CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(mlrd. so'm)






CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(mln. so'm, foiz)

	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
Qashqadaryo viloyati	859 744,0	104,8	36 903,7	171,2	822 840,3	103,0
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	35 735,3	103,3	915,7	3,1 m	34 819,6	101,5
Dehqonobod	42081,3	104,8	400,2	4,6 m.	41 681,1	104,1
Qamashi	64040,1	103,8	862,2	12,5 m.	63 177,9	102,6
Qarshi	34772,1	104,0	661,9	4,6 m.	34110,2	102,4
Koson	83913,4	104,0	574,9	20,5 m.	83338,5	103,4
Kitob	63820,8	103,9	800,7	15,1 m.	63020,1	102,7
Mirishkor	35014,0	103,4	379,2	10,0 m.	34634,8	102,4
Muborak	26598,3	102,0	861,2	152,8	25737,1	100,9
Nishon	33161,8	102,4	510,0	5,9 m.	32651,8	101,1
Kasbi	35755,8	105,9	562,8	5,2 m.	35193	104,6
Chiroqchi	85727,1	104,6	1212,3	5,6 m.	84514,8	103,4
Shahrisabz	32853,7	100,4	3998,2	65,2	28855,5	108,5
Yakkabog'	49467,7	105,9	555,9	20,0 m.	47911,8	102,7
Qarshi sh.	188579,2	107,5	23037,0	170,1	165542,2	102,3
Shahrisabz sh.	48223,4	106,0	571,5	4,8 m	47651,9	105,0


2019-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qarshi shahri, Shahrisabz shahri, Yakkabog', Kasbi va Dehqonobod tumanlarida qayd etildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI
(o'sish sur'atlari)





**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(hajmi va o'sish
sur'atlari)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan 71,2 % ga o'sdi va 36 903,7 mln. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,3 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 746 620,4 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 3,5 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,8 % ga teng keldi hamda uyushmagan savdo tovar aylanmasi 76 219,9 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 1,5 foizga kamayish kuzatildi.

**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI**
(hajmi mln. so'm)

2019-yil yanvar	2020-yil yanvar
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik 636 686,1	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik 746 620,4
Uyushmagan savdo 68 314,1	Uyushmagan savdo 76 219,9
Yirik korxonalar 19032,7	Yirik korxonalar 36 903,7



**CHAKANA SAVDO
AYLANMASIDA
YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA
XUSUSIY
TADBIRKORLIK-
NING HUDUDLAR
KESIMIDA ULUSHI
(foizda)**



■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Koson (99,3 %), Dehqonobod (99,0 %), Mirishkor (98,9 %), Shahrisabz sh. (98,8 %) va Qamashi (98,7 %) tumanlar yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahrida (12,2 %), Shahrisabz (12,2 %) va Yakkabog' tumanlarida (3,1 %) kuzatilgan.

4,3 %
Yirik korxonalar

86,8 %
Kichik biznes va
xususiy
tadbirkorlik




8,9 %
Uyushmagan
savdo

**CHAKANA
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
TARKIBI ulushi,
foizda**




**MULKCHILIK
SHAKLI
BO'YICHA
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
ULUSHI, foizda**



Muborak (0,15 %), G'uzor (0,6 %), Qarshi shahri (0,04 %) va Nishon (0,03 %) tumanlaridan tashqari barcha hududlarda haligacha chakana savdoda sezilarsiz darajada davlat mulkining ulushi saqlanib qolmoqda.

**CHAKANA SAVDO
TOVAR
AYLANMASIDA
MULKCHILIK
SHAKLLARINING
HUDUDLAR KESIMI
BO'YICHA ULUSHI
(foizda)**



■ Davlat mulki ■ Nodavlat mulki



**MULKCHILIK
SHAKLLARI
BO'YICHA
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(mln. so'm)**

2020-yil yanvar holatiga chakana savdo tovar aylanmasi 859 744,0 mln. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 4,8 % ga o'sdi) va mulkchilik shakllari bo'yicha 859 601,3 mln. so'm nodavlat mulki (99,98 %) hamda 142,7 mln. so'm (0,02 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

	Jami	Nodavlat mulk	Davlat mulki
Qashqadaryo viloyati	859 744,0	859 601,3	142,7
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	35 735,3	35 712,3	23,0
Dehqonobod	42 081,3	42 081,3	-
Qamashi	64 040,1	64 040,1	-
Qarshi	34 772,1	34 772,1	-
Koson	83 913,4	83 913,4	-
Kitob	63 820,8	63 820,8	-
Mirishkor	35 014,0	35 014,0	-
Muborak	26 598,3	26 558,0	40,3
Nishon	33 161,8	33 152,7	9,1
Kasbi	35 755,8	35 755,8	-
Chiroqchi	85 727,1	85 727,1	-
Shahrisabz	32 854,1	32 854,1	-
Yakkabog'	49 467,7	49 467,7	-
Qarshi sh.	188 579,0	188 508,7	70,3
Shahrisabz sh.	48223,2	48223,2	-


**QASHQADARYO
VILOYATI
BO`YICHA AHOLI
JON BOSHIGA
NISBATAN
CHAKANA
SAVDO TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(ming so`m)
VA O`SISH
SUR`ATLARI
(foizda)**

2020-yil yanvar oyida o`rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 264,8 ming so`m(2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 2,7 % ga o`sdi) va viloyatning barcha hududlarida aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi ko`rsatkichlari o`sish sur`atlari kuzatildi.

	Hajm, ming so`m	O`sish sur`ati, %
Qashqadaryo viloyati	264,8	102,7
<i>hududlar:</i>		
G`uzor	177,5	101,4
Dehqonobod	289,6	102,6
Qamashi	239,1	101,7
Qarshi	142,2	101,7
Koson	298,2	101,8
Kitob	244,1	102,0
Mirishkor	296,7	101,4
Muborak	310,4	99,9
Nishon	220,5	100,0
Kasbi	184,5	103,8
Chiroqchi	211,7	101,9
Shahrisabz	149,3	98,8
Yakkabog`	189,8	103,7
Qarshi sh.	691,0	106,0
Shahrisabz sh.	348,9	104,2


Ushbu ko`rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganida eng yuqorisi Qarshi shahri (691,0 ming so`m), Shahrisabz shahri (348,9 ming so`m) va Muborak (310,4 ming so`m) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Buning sababi ushbu hududlarda yirik savdo va sanoat tashkilotlari joylashgan.

QASHQADARYO VILOYATI HUDUDLARI KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI O'SISH SUR'ATLARI (foizda)




2020-yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 % ni tashkil etib, 16 159,8 mln. so'mga yetdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 4,8 % o'sdi. Bundan jami savdo aylanmasining 93,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

HUDUDLAR KESIMIDA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI HAJMI (mln. so'm)




Umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasining nisbatan yuqori ko'rsatkichi Qarshi shahriga (viloyatning jami tovar aylanmasiga nisbatan 33,5 %) to'g'ri kelmoqda. Nisbatan yuqori hajm Qamashi (9,4 %), Kitob (9,3 %) va Muborak (7,5 %) tumanlarida kuzatildi.

MULKCHILIK
SHAKLI
BO'YICHA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
ULUSHI, foizda



2019-yilning mos davri bilan solishtirganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,1 % dan 0,2 % ga oshgan.



**MULKCHILIK
SHAKLLARI
BO'YICHA
UMUMIY
OVQATLANISH
KORXONALARI
SAVDO
AYLANMASI
HAJMI
(mln. so'm)**

	Jami	Nodavlat mulk	Davlat mulki
Qashqadaryo viloyati	16 159,8	16 129,5	30,3
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	5 410,1	5 410,1	-
Dehqonobod	842,3	842,3	-
Qamashi	-	-	-
Qarshi	709,7	709,7	-
Koson	274,3	274,3	-
Kitob	1 515,8	1 515,8	-
Mirishkor	1 010,9	1 010,9	-
Muborak	425,3	425,3	-
Nishon	1 498,5	1 498,5	-
Kasbi	916,5	916,5	-
Chiroqchi	1 205,8	1 205,8	-
Shahrisabz	454,8	454,8	-
Yakkabog'	200,2	200,2	-
Qarshi sh.	788,1	757,8	30,3
Shahrisabz sh.	208,3	208,3	-

2020-yil yanvar oyida umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi 16 159,8 mln. so'm (2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 4,8 % ga o'sdi) va mulkchilik shakllari bo'yicha 16129,5 mln. so'm nodavlat mulki (99,8 %) hamda 30,3 mln. so'm (0,2 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Viloyatda davlat ulushi Qarshi shahrida (3,8 %) to'g'ri kelgan bo'lsa boshqa tumanlarda mulkiy shakli bo'yicha davlat ulushlari mavjud emas.



**QASHQADARYO
VILOYATING
ULGURJI
SAVDO
TOVAR
AYLANMASI**

**Ulgurji savdo
tovar aylanmasi**

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **174263,9 mln.** so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **5,5 %** ga kamayish kuzatildi.

Yirik korxonalar

Yirik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi **18 570,3 mln.** so'mni tashkil qildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan **52,6 %** kamayish kuzatildi.
10,7 %

Kichik korxonalar


Savdo hajmi:
79452,3 mln. so'm
O'sish sur'ati: **107,8 %**
45,6 %

Mikrofirmalar

Savdo hajmi:
76241,3 trln. so'm
O'sish sur'ati: **106,7 %**
43,7 %

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 153 693,6 mln. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 7,3 % ga o'sgan. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 89,3 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslanganda, Nishon (7,7 %), Shahrisabz (7,5 %), Qarshi shahri (7,4 %), Qamashi (7,3 %) va Mirishkor (7,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**YIRIK
KORXONALAR,
KICHIK BIZNES
VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK-
NING ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASIDAGI
ULUSHI, %**





**HUDDDLAR
KESIMIDA
ULGURJI SAVDO
TOVAR
AYLANMASI
HAJMI
(mln. so'm)
VA O'TGAN
YILNING SHU
DAVRIGA
NISBATAN
O'SISH
SUR'ATLARI
(foizda)**


	Jami	%	Yirik korxonalar	%	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	%
Qashqadaryo viloyati	174263,9	94,5	18570,3	47,4	155693,6	107,3
<i>hududlar:</i>						
G'uzor	1099,0	107,0	-	-	1099,0	107,0
Dehqonobod	446,0	106,9	-	-	446,0	106,9
Qamashi	2793,5	120,9	315,4	-	2478,1	107,3
Qarshi	9010,0	106,9	-	-	9010,0	106,9
Koson	9172,9	106,9	-	-	9172,9	106,9
Kitob	9266,1	107,1	-	-	9266,1	107,1
Mirishkor	3120,9	122,3	385,1	-	2735,8	107,2
Muborak	2750,2	166,4	1316,2	4,2 m.	1434,0	106,9
Nishon	9373,6	112,0	356,2	14,2 m.	9017,4	107,7
Kasbi	6843,8	3,0 m.	4444,6	-	2399,2	106,8
Chiroqchi	4710,3	106,8	-	-	4710,3	106,8
Shahrisabz	2083,7	107,4	30,4	102,0	2053,3	107,5
Yakkabog'	4306,4	107,6	22,7	-	4283,7	107,1
Qarshi sh.	98062,9	82,2	11688,6	30,1	86374,3	107,4
Shahrisabz sh.	11224,7	106,9	11,1	29,8	11213,6	107,2

2019-yilning mos davriga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasi yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Yakkabog' (107,6 %), Shahrisabz (107,4 %) va Kitob (107,1 %) tumanlarida kuzatildi.



**HUDUDLAR
KESIMIDA
ULGURJI
SAVDO TOVAR
AYLANMASI-
NING ULUSHI, %**

Ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, viloyat ulgurji savdo aylanmasida eng yuqori ulush Qarsh shahar 56,3 %, Shahrisabz shahar 6,4 %, Nishon 5,4 %, Kitob 5,3 % tumanlarida qayd etildi.



Ulgurji tovar aylanmasida 2020-yilning yanvarida eng kam ulush Dehqonobod (0,3 %), G'uzor (0,6 %), Shahrisabz (1,2 %) va Qamashi tumanlarida (1,6 %) qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-83-91**